



**UDK : 821.111**

**ORCID:0000-0002-1961-9677**

## **RAMZLARNING GIPO VA GIPERTEKSTUAL TADQIQI**

**Sadikova Dildora Nizomovna**

*Navoiy davlat universiteti, Ingliz tili amaliy fanlari kafedrasи o‘qituvchisi  
[sadikovadilya88@gmail.com](mailto:sadikovadilya88@gmail.com)*

**Annotatsiya** Ramzlar adabiyotning asosiy tarkibiy qismi bo‘lib, matnlar va ma’nolar qatlamlari o‘rtasida ko‘prik vazifasini o‘taydi. Jérard Jenette tomonidan kiritilgan gipotekstuallik va gipertekstuallik tushunchalari ramzlarning adabiyotning intertekstual to‘ridagi rolini tahlil qilish uchun foydali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu maqola ramzlarning intertekstual va gipertekstlar sifatida rolini tahlil qilishni o‘rganadi, bu esa adabiy asarlarning boyligi va chuqurligiga hissa qo‘sadi.

**Kalit so’zlar:** gipotekstuallik, gipertekstuallik, intertekstuallik, ramz, pentakl. muqaddas graal

## **THE HYPO- HYPERTEXTUAL STUDY OF SYMBOLS**

**Annotation** This paper reviews the issues of hypertextuality and hypertextuality as they are relevant to the use of symbols in literature. Using the concepts offered by Gérard Genette and Julia Kristeva, the research looks at the symbols as intertextual constituents and analyzes their meaning within the text as well as outside of the text. The study argues that the interaction of symbols, hypertextuality, and hypertextuality is one of the manifestations of the intricacy of literature and intertextuality.

**Key words:** hypertextuality, hypertextuality, intertextuality, holy grail, pentacle, , symbolism, literature

## **ГИПО И ГИПЕРТЕКСУАЛЬНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ СИМВОЛОВ**

**Аннотация:** В данной работе рассматриваются вопросы гипотекстуальности и гипертекстуальности в их связи с использованием символов в литературе. Опираясь на концепции, предложенные Жераром Женеттом и Юлией Кристевой, исследование рассматривает символы как интертекстуальные составляющие и анализирует их значение как внутри текста, так и за его пределами. В исследовании утверждается, что

взаимодействие символов, гипотекстуальности и гипертекстуальности является одним из проявлений сложности литературы и интертекстуальности.

**Ключевые слова:** гипотекстуальность, гипертекстуальность, интертекстуальность, Святой Грааль, пентаграмма, символизм, литература

## KIRISH

Postmodern adabiyotida ramzlar o‘rni haqida gapiradigan bo‘lsak ular kitobxonni tanqidiy fikrlashga chorlovchi , o‘z navbatida , polesemantik ma’nolar kasb etadi. Ibtidoiy davlardan boshlab hozirgi kunga qadar keng qatlamda qo‘llanilayotgan ramzlar dastlabki manbaga ishora qilibgina qolmay, adabiyot to‘rida o‘zaro ma’noviy aloqani bog’lashda xizmat qiladi.Ular mualliflarga murakkab g‘oyalar va hislarni ifodalash imkoniyatini beradi, oldingi asarlar yoki madaniy havolalardan foydalanadi.

Ramzlarning turli asarlarda uchrashi *inetrtekstuallik* hodisasi hisoblanadi.Bunda bir asardagi ramz boshqa bir asarda tilga olinib o’tililadi.Adabiyotda shuningdek oldin yozilgan asarlarga taqlid qilish asosida yangi matnni yaratish mumkin. Bu hodisa gipotekstuallik va gipertekstuallik hisoblanadi.

Fransuz adabiyot nazariyotchisi J.Janet strukturaviy harakat bilan hamohanglikda R.Bars (Ronald Barthes) va Claude Levi Strausesdan yangi yaratuvchanlik metodini o’zlashtirdi. U o‘zining *Palimpsests: Literature in the Second Degree (1982)*, and *Paratexts. Thresholds of Interpretation (1997)* kitobida paratekstuallik va gipotekstuallik atamalarini tanishtirib o’tgan va quyidagicha izoh bergen: “*Gipertekstuallik – bu har qanday matn B (men uni gipertekst deb atayman) bilan undan oldingi matn A (albatta, uni hipotext deb atayman) o‘rtasidagi bog‘liqlik bo‘lib, bunda B matni A matniga sharh berish shaklida emas, balki boshqa bir yo‘sinda bog‘langan bo‘ladi.*”[1] Gipertekst (hypotext) **dan** Genette “transformatsiya” deb atagan jarayon orqali hosil bo‘ladi. Bu jarayonda B matn A matnnini “eslatadi” yoki “uyg‘otadi”, lekin uni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tilga olishi shart emas. Gipertekst, albatta, vaqt o‘tishi bilan mustaqil va o‘ziga xos original matnga aylanishi mumkin.

Gipertekstuallik gipotekstni yangi kontekstga moslashtirish, taqlid qilish yoki o‘zgartirishni o‘z ichiga oladi. Gipotekstdan olingan ramz qayta ishlanganda yoki yangi talqin qilinganda, u gipertekstga aylanadi. Bu jarayon ramzga yangi ma’no qatlamlarini qo‘shish imkonini beradi, shu bilan birga uning asl ma’nosini saqlab qoladi. Gipertekstuallik oddiy takrorlash emas, balki yangi asarning madaniy, ijtimoiy yoki mafkuraviy kontekstini aks ettiruvchi ijodiy qayta ishlashdir.[2]

## ADABIYOTLAR TAHLILI

Intertekstuallik Julia Kristeva tomonidan kiritilgan termin bo‘lib, matnlarning o‘zaro bog‘liqligini ta’kidlaydi. U hech qanday matn izolyatsiyada mavjud emasligini, balki barcha matnlar havolalar va ta’sirlar to‘ridan iborat ekanligini ko‘rsatadi.Ramzlar,intertekstual elementlar sifatida, matnlar o‘rtasida dialog yaratadi, bu esa ko‘plab talqinlar imkoniyatini beradi va kitobxon tajribasini boyitadi.[3]

Misol tariqasida matnlar o‘rtasida dialogni ifoda etuvchi *Feniks* ramzi turli madaniyatlar va adabiy asarlarda turli shakllarda uchraydi. Misr mifologiyasida u quyosh va qayta tug‘ilish ramzi hisoblanadi, bu ramz xristian ikonografiyasida esa tirilishni anglatadi, shu asnoda zamonaviy adabiyotda esa yangilanish va umid ramzidir. *Feniksning* har bir paydo bo‘lishi matnlar o‘rtasida ma’noviy bog‘lnanish yaratadi va uning tushunilish darajasini oshiradi.

Ya’na bir misolni tahlil qiladigan bo‘lsak, ***muqaddas graal*** afsonasi va ramziy elementi g‘arb adabiyotida keng tushuniladigan ramz hisoblanadi. Graal birinchi marta Chrétien de Troyesning "**Perceval, le Conte du Graal**" ("Graal haqidagi hikoya") asarida tilga olinadi.[4] 1180–1191-yillar orasida yozilgan ushbu tugallanmagan dostonda graal keyinchalik unga beriladigan muqaddaslik ma’nosini hali olmagan edi. Doston qahramoni **Perceval baliqchi qirolning** sehrli qarorgohida ziyofatda bo‘lib, g‘aroyib marosim guvohi bo‘ladi. Har bir taom berilganida xonalar orasidan o‘tib borayotgan yosh yigitlar turli buyumlarni ko‘tarib yurishadi. Avvaliga bir yigit qon oqayotgan nayza ko‘tarib o‘tadi, keyin ikki yigit katta shamdonlar olib yuradi. Nihoyat, chiroqli bir qiz juda nafis bezatilgan **graalni** olib chiqadi. Chrétienning **Perceval** asarida qahramon o‘z maqsadiga erisholmaydi. Biroq, boshqa mualliflar bu tugallanmagan hikoyani o‘z she’riy asarlarida davom ettirib, '**Perceval davom ettirishlari**' deb nomlanuvchi yangi versiyalar yaratishgan.[5]

T. S. Eliotning *The waste Land* (1922) (Chor Zamini) asarida muqaddas graal afsonasidan foydalanish o‘rta asr adabiyoti va diniy matnlar bilan intertekstual aloqani yuzaga keltiradi. T. Eliotning poeziyasi *graalni* zamonaviy dunyodagi ma’naviy quruqlik ramzi sifatida qayta talqin qiladi, bu birinchi jahon urushidan keyingi davrning parchalanish va umidsizlik ruhini aks ettiradi.[6]

Intertextuallik o‘quvchi tajribasini boyitadi, chunki u matnning darhol bilinarli chegaralaridan tashqaridagi ma’nolar tarmog‘ini yaratadi. Bu ramzlarni keng madaniy va adabiy havolalar bilan uyg‘unlashtirish imkoniyatini beradi, ularni yanada kuchli va jozibali qiladi.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

J. Janet tomonidan kirtilgan gipoteks termini ba’zan intertekstuallikning alluziya kategoriyasiga juda yaqin turishi mumkin. Biroq bunda gipotekstdan olingan ramz qayta ishlanganda yoki yangi talqin qilinganda, u giperkekstga aylanadi. Bu jarayon ramzga yangi ma’no qatlamlarini qo‘sish imkonini beradi, shu bilan birga uning asl ma’nosini saqlab qoladi. Giperkekstuallik oddiy takrorlash emas, balki yangi asarning madaniy, ijtimoiy yoki mafkuraviy kontekstini aks ettiruvchi ijodiy ishdir. Giperkekstuallik gipotekstni yangi kontekstga moslashtirish, taqlid qilish yoki o‘zgartirishni o‘z ichiga oladi.[7]

Misollar qiyosida o‘rganadigan bo‘lsak, diniy matnlarda adabiy ramzlar uchun gipotekst bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, ***muqaddas graal*** ramzi xristian mifologiyasida Isoning So‘nggi Kechaning kosasi sifatida paydo bo‘lgan. O‘rta asr qirol Artur afsonalarida u ilohiy inoyat va ma’naviy izlanish ramziga aylanadi. Keyinchalik, Indiana Jones va So‘nggi Salibiy Yurish kabi filmlarda u eng yuqori qudrat va insoniy ambitsiyalar ramzi sifatida qayta talqin qilinadi.

Amerika yozuvchisi D. Braun asarida esa asar boshida moddiy ramz deb e’tirof etilsada biroq so’ngida bu *qirollik qoni* bilan bog’lik ya’ni Iso payg’ambar va Mariya Magdalenaning avlodlarining siri sifatida ko’rsatilgan. Asar so’ngida ushbu ramz *ayollik ibtidosi* ya’ni nomoddiy, mavhum his tuyg’u sifatida ifodalanadi.[8]

### 1.1 jadval

#### *Muqaddas graal ramzining gipotekstual tahlili*

Muallif	Gipo matn	Manosi	Vaqti
Joseph of Arimathea	Last Supper	Isoning qoni to’ldirilgan idish	12- asr
Chrétien de Troyes	<i>Perceval, le Conte du Graal</i>	ilohiy inoyat, ruhiy izlanish	12- asr
Sir Thomas Malory	<i>Le Morte d’Arthur</i>	ritsarlik fazilatlari	15-asr
T.S. Eliot	<i>The Waste Land</i>	ruhiy qashshoqlik va yangilanish	1922- yil
Dan Brown	<i>Da Vince Code</i>	Xristianlik haqidagi yashirin haqiqatlar va muqaddas ayol ramzi	2003 -yil

Demak, muqaddas graalning gipotekstualligi bitta ramzning turli madaniy va tarixiy kontekstlarda qanday qilib cheksiz qayta talqin qilinishi va o‘zgartirilishini ko’rsatadi. Har bir yangi talqin oldingi gipotekslarga asoslanib, yangi ma’nolar qatlamlarini qo’shamasi va davrning qadriyatları, tashvishlari va intilishlarini aks ettiradi. Graalning doimiy jozibasi uning muqaddas va dunyoviy, qadimiy va zamonaviyni ifodalash qobiliyatidadir, bu uni g‘arb madaniyatida kuchli va ko‘p qirrali ramzga aylantiradi.

Adabiyotdagi ko‘plab ramzlar qadimgi afsonalardan kelib chiqqan. Masalan, Feniks ramzi, kuldan qayta tiriladigan afsonaviy qush, Misr va Yunon mifologiyasiga asoslangan. U qayta tug‘ilish va abadiylikni anglatadi. Bu gipotextual ramz *Ray Bradburyning Fahrenheit 451* asarida qayta ishlangan va u yerda yo‘q qilish va qayta tiklashning davriy tabiatini ifodalaydi.

Ramzlarni qayta talqin qilish: *Samuel Taylor Coleridgening Qadimgi Dengizchining Qo’shig‘i* asaridagi **albatros** ramzi yaxshi belgi va og‘irlikni anglatadi. Zamonaviy adabiyotda albatros ko‘pincha ayb yoki o‘tmishdagi harakatlarning og‘irligi ramzi sifatida qayta talqin qilinadi. Masalan, zamonaviy she’riyatda u ekologik halokat yoki shaxsiy pushaymon ramzi bo‘lishi mumkin, bu ramzning yangi muammolarga moslashishini ko’rsatadi.

Ramzlarning ommaviy madaniyatda qayta Ishlash: Pentagram – muvozanat va himoya ramzi – zamonaviy fantastika adabiyoti va filmlarida qayta ishlangan. Neil Gaimanning Qum Odami va Jim Butcherning Drezden Fayllari asarlarida pentagram sehr va g‘ayritabiyy qudvat

ramzi sifatida qayta talqin qilinadi. Bu gipertextual o‘zgarish zamonaviy mistitsizm va g‘ayritabiyy narsalarga qiziqishni aks ettiradi.

Gipertextuallik ramzlarning dinamik tabiatini ko‘rsatadi, ularning madaniy, ijtimoiy va mafkuraviy o‘zgarishlarga qanday moslashishini namoyish etadi. Bu mualliflarning an’anaviy ramzlarni zamonaviy muammolarga moslashtirishdagi ijodkorligini ta’kidlaydi.

Gipotekstuallik matn va uning manbai o‘rtasidagi munosabatni anglatadi, gipertextuallik esa bu manbaning yangi matnga aylantirilishini tasvirlaydi.

Thais Morganning ta’kidlashicha, intertekstuallik «matnlarning madaniyatdagi belgilar yoki belgilar qo‘llash amaliyotlarining katta tizimiga nisbatan tahlili» sifatida muallif~asar ~an’ana uchligidan e’tiborni matn~ diskurs~ madaniyat uchligiga qaratadi. Shu bilan, “intertekstuallik adabiyot tarixining evolyutsion modelini belgilar tizimi sifatidagi adabiyotning strukturaviy yoki sinxronik modeli bilan almashtiradi. Ushbu strategik o‘zgarishning eng ko‘zga ko‘ringan ta’siri adabiy matnni psixologik, sotsiologik va tarixiy determinizmlardan ozod qilish, uni cheksiz munosabatlar o‘yiniga ochishdir.”[ 9]

Intertekstuallik, nazariya va amaliyot sifatida, aniq ravishda gipermatnli nazariya bilan chuqur bog‘liq bo‘lib, buni Jorj P. Landowning asarlarida ayniqsa yaqqol ko‘rish mumkin. Landowning bu sohadagi asosiy asari — «*Gipermatn*» — «Zamonaviy tanqidiy nazariya va texnologiyaning yaqinlashuvi» degan kichik sarlavhaga ega (Landow 1992). Ushbu asarda va ko‘plab maqolalarida Landow gipermatnlilik matnlilik va ma’no haqidagi poststrukturalistik nazariyalarning moddiy ifodasi va amalga oshirilishi ekanligini ta’kidlaydi. U shunday deydi:

«*Gipermatn zamonaviy adabiyotshunoslik va semiotika nazariyasining ba’zi asosiy nuqtalari, xususan, Derridaning markazsizlantirishga va Barthesning o‘quvchi matni va yozuvchi matni tushunchalariga urg‘usi bilan ko‘p umumiy jihatlarga ega. Aslida, gipermatn bu tushunchalarning deyarli oshkorona darajada aniq ifodasini yaratadi, bu esa o‘z navbatida ular va ularning bashoratlilik va tarixiy munosabatlar (yoki joylashganligi)ning qiziqarli kombinatsiyasi haqida savollar yuzaga keladi.»[10]*

Landowning «uyatli» «anqov ifodasi» haqidagi fikrini men bu yerda shubha ostiga qo‘ymoqchiman. Biroq, poststrukturalistik matnlilik va intertekstuallik tushunchalari nima uchun Landow va boshqalar tomonidan nishonlanadigan yangi gipermatn tizimlarini to‘ldirishi va hattoki ularni oldindan ko‘rsatishi kerakligi aniq. Barthes va Derrida, albatta, gipermatnlilik moddiy jihatdan ortda qoldirganga o‘xshagan tushunchalarni — mustaqil matn, matnni kontekstdan ajratish, muallifning originalligi va boshqalarni — izchil dekonstruksiya qiladi. Gipermatnda aniq markaz yo‘q, chunki undagi har qanday matn boshqa matn bilan bog‘lanishi va unga kirib borishi mumkin. Gipermatnlar chiziqli o‘qishga qarshilik ko‘rsatadi, chunki ular boshlang‘ich kirish nuqtasidan spiral shaklida tarqaladigan bog‘lanishlar tarmog‘ini taklif qiladi, bu kirish nuqti esa o‘ziga xos yoki asl emas, balki ixtiyoriydir. [11]

Eng muhimi, gipermatnlar Barthes, Derrida, Kristeva va boshqalarning poststrukturalistik asarlari uchun asosiy bo‘lgan intertekstuallik tushunchasini amalga oshirganga o‘xshaydi. Landow takrorlaganidek, gipermatn asosiy jihatlarda intertekstualdir:

uning barqaror ichki yoki tashqi tomoni yo‘q; yakuniy yopilish nuqtasi yo‘q, chunki bog‘lanishlar ko‘plab yo‘llar bilan kuzatilishi va hattoki har bir o‘qishda qo‘shilishi mumkin; u o‘quvchilarni yozuvchilarga aylantiradi, chunki gipermatnlardan faol ishtirok etmasdan, matnli bog‘lanishlarni izlash, qo‘shish va birlashtirishni talab qilgan holda foydalanish mumkin emas.

**XULOSA:**

Gipotekstuallik- mualliflarga mavjud madaniy va adabiy an’analarga tayanib, uzluksizlik va chuqurlik hissini yaratish imkoniyatini beradi. Gipotextlardan foydalangan holda, yozuvchilar umumiyligi madaniy bilimlarni uyg‘otishi va o‘z asarlariga ma’no qatlamlarini qo‘shishi mumkin.

gipertextuallik va intertextuallik tushunchalari ramzlarning adabiyotdagi rolini tushunish uchun keng qamrovli asos yaratadi. Gipotextuallik ramzlarning ilgari yaratilgan matnlar yoki madaniy artefaktlardagi ildizlarini kuzatadi, gipertextuallik esa ularning yangi kontekstlarda qanday o‘zgarishi va moslashishini o‘rganadi. Intertextuallik matnlarning o‘zaro bog‘liqligini ta’kidlab, ramzlar orqali asarlar o‘rtasida dialog yaratish va o‘quvchi tajribasini boyitish imkoniyatini ko‘rsatadi. Birgalikda bu tushunchalar ramzlarning dinamik va rivojlanuvchan tabiatini namoyish etadi, ularning murakkab g‘oyalar va hislarni vaqt va madaniyatlar bo‘ylab yetkazish qobiliyatini ta’kidlaydi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:**

- 1.Genette, Gérard (1997). *Palimpsests: Literature in the Second Degree*. U of Nebraska Press. p. 5.
- 2.Martin, Bronwen (2006). *Key Terms in Semiotics*. Continuum. p. 100. ISBN 0-8264-8456-5. Retrieved 5 August 2013.
- 3.Kristeva, Julia (1980). *Desire in language : a semiotic approach to literature and art*. New York: Columbia University Press. p. 66.
- 4.Loomis, Roger Sherman (1991). *The Grail: From Celtic Myth to Christian Symbol*. Princeton. ISBN 0-691-02075-2
- 5.Staines, David. (Trans.) *The Complete Romances of Chrétien de Troyes*. Indiana University Press, Bloomington & Indianapolis, 1990, page 379.
6. Eliot, T.S. *The Waste land*. New York .1922.
- 7.Allen, Graham (2013). *The New Critical Idiom*. Ch 3: Hypertextuality.: Routledge.
8. Dan Bawn, Da Vinche Code, Doubleday, 2003 p-285
9. Landow, George P. “Hypertext in Literary Education, Criticism, and Scholarship”, in: *Computers and the Humanities* 23/3 (1989), 173-98
10. Landow, George P. *Hypertext: The Convergence of Contemporary Critical Theory and Technology*, Baltimore and London: The Johns Hopkins University Press, 1992, p33-34
11. Barthes, Roland *The Rustle of Language*, Richard Howard (trans.) Oxford: Blackwell, 1986